

## AHOLI TOMORQALARIDAN FOYDALANISHNI MOLIYAVIY QO'LLAB- QUVVATLASHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI

*Odilov Umid Abduxalimovich*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistranti*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada yer fondi va undan samarali foydalanish hamda foydalanishni moliyalashtirish yuzasidan ilmiy yondoshuvlar keltirilgan. SHuningdek, aholi tomorqalaridan olinayotgan daromadlarni yanada oshirish bo'yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** yer fondi, renta, unumdorlik, yerdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari, yer solig'i, yer bahosi, subsidiya, dotatsiya, qishloq xo'jaligi korxonalar, moliyaviy ko'mak.

### THE IMPORTANCE AND NECESSITY OF FINANCIAL SUPPORT FOR THE USE OF POPULATION DROPLETS

*Odilov Umid Abdukhalimovich*

*Termez University of Economics and services 2nd stage graduate*

**Annotation.** This article presents scientific approaches to financing the Land Fund and its effective use and use. Conclusions and proposals have also been developed to further increase the income received from the population droplets.

**Keywords.** Land Fund, rent, productivity, indicators of land use efficiency, land tax, land valuation, subsidy, Dotasia, agricultural enterprises, financial support.

**Kirish.** O'zbekiston qadimdan qishloq xo'jaligi rivojlangan maskan hisoblanadi. Shunday ekan, qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining mavsumiy xarakterga ega ekanligi, yer resurslarining unumdorlik darajasini saqlab turish ushbu sohani doimiy ravishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarurligini keltirib chiqaradi. Chunki, yer resurslari unumdorligini oshirish uchun mablag' talab etiladi. "Jahon yer fondi bugungi kunda 13,4 mlrd.gektarni tashkil qiladi, uning atigi 1,5 mlrd.gektari, ya'ni 11 foiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi"[5]. Qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshishida kichik yer egalari bo'lgan aholi tomorqalarida yetishtirilgan mahsulot muhim rol' o'ynaydi. Mamlakatimizda agrar sohani rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda, bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal

rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Unda "...oxirgi yillarda yaratilgan imkoniyatlar tufayli yangi korxonalar paydo bo'lyapti, tadbirkorlar eminerkin rivojlanyapti, qayta ishlash darajasi oshyapti. Klasterlar tuzib, yerni egali qilganimiz uchun uning unumdorligi ham o'zgarayapti. yer unumli bo'lsa, tadbirkorga oson bo'ladi, mahsuloti sifatli, raqobatbardosh bo'ladi. Klasterlar biz uchun nisbatan yangi amaliyot ekanligini hisobga olib, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tartiblarini, shu jumladan xarajatlarni subsidiyalash, yer ajratish tartibini ko'rib chiqish hamda kreditlash tizimini soddalashtirish lozim"[4]. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga etibor beradigan bo'lsak, ishlab chiqaruvchilar tarkibida dehqon (shaxsiy uy xo'jaliklari) munosib ulushga ega ekanligini ko'rish mumkin. 2005-2021 yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi bo'yicha Ayniqsa, dehqon xo'jaligining chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hissasi 90,7 foizni tashkil etishi aholini go'sht va sutga bo'lgan ehtiyojini qondirilishida munosib o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi[5].

**Asosiy qism.** Qishloq xo'jaligini moliyalashda kredit munosabatlari kapitalizmdan oldingi davrlarda ham mavjud bo'lgan. U davrda mayda yer egalari, ya'ni tomorqa xo'jaliklari mahsulot ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash maqsadida sudxo'rlik kreditlaridan foydalanganliklari to'g'risida tarixiy ma'lumotlarni uchratish mumkin. Hozirgi davr iqtisodiy adabiyotlarida ham qishloq xo'jaligini kreditlash zarurligi, kreditning mahsulot yetishtirish jarayonlaridagi roli to'g'risida fikr va mulohazalar mavjud. Biz ularning barchasini inobatga olgan holda qishloq xo'jaligida moliyaviy qo'llab-quvvatlash munosabatlarining muqarrarligini e'tirof etib, iqtisodiyot taraqqiyotining turli bosqichlarida qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llabquvvatlash mexanizmining doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib borishini e'tirof etmoqchimiz. Iqtisodiy adabiyotlarda "moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi" va "moliyalash mexanizmi" kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ularning mohiyati va bir-biridan farqi to'g'risida mulohazalar bildirilgan. Biz bu ikki tushunchaning bir-biridan farqi borligini "moliyalash mexanizmi", "moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi" ning asosiy elementlaridan biri ekanligini to'liq e'tirof etgan holda, ilmiy izlanishimizning maqsadiga muvofiq aholi tomorqa xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi ustida to'xtalib o'tishni lozim topdik. "Moliyalash mexanizmi" termini ishlatilganda ko'z oldimizga birinchi keladigan tushuncha kreditlash mexanizmi bo'lib hisoblanadi[5]. Buning muhim tomoni shundaki, "moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi" kengroq tushuncha bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni kreditlashdan tashqari, iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan soliqlar orqali qo'llab-quvvatlash, bojxona bojlari orqali qo'llab-quvvatlash, sug'urta to'lovlari orqali qo'llab-quvvatlash, byudjet mablag'lari va jamg'arma mablag'lari, xorijiy-moliyaviy institutlar mablag'lari orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tushiniladi. Aholi tomorqalaridan foydalanishni

qo'llab-quvvatlashda iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lgan soliq siyosati orqali ta'sir qilish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Chunki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar yaratiladigan mahsulot tannarxiga bevosita ta'sir ko'rsatib, bozorlarimizni arzon va sifatli mahsulot bilan to'ldirishga xizmat qiladi. Aholining yerga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yaqindan yordam beradi. Xorijiy davlatlarda qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasi va ajratiladigan mablag'lar miqdori mamlakatda yaratiladigan YaIM hajmiga bog'liq. Shunday ekan, YaIM qancha ko'proq yaratilsa, qishloq xo'jaligiga ajratiladigan mablag' miqdori shuncha oshib boraveradi. Mamlakatda olib boriladigan pul-kredit siyosati aholini arzon va zaruriy mablag' bilan ta'minlash imkonini beradi. Tijorat banklari orqali beriladigan kreditlarning foiz stavkasining past yoki yuqoriligi, kreditlash mexanizmining qay darajada yo'lga qo'yilganligi tomorqa xo'jaligi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Kredit foiz stavkasining yuqoriligi mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi[2]. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxining yuqoriligi aholining xarid qobiliyatini pasaytirish bilan birga aholining o'rtacha daromadi va jamg'armasining kamayishiga olib keladi. Qishloq xo'jaligida aholi tomorqasini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda asosan, jamg'arma mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Aholi tomorqalaridan samarali foydalanishda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning ahamiyati juda katta. YUqori hosil beruvchi o'simliklar, zotdor chorva mahsulotlarini olib kelish, suv tejoychi texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilish mamlakatdagi investitsion siyosat darajasi bilan bog'liq. Shunday ekan, xorijiy investorlar uchun qulayliklar yaratish, ularning faoliyat yuritishiga sharoit yaratish soha rivojlanishi uchun muhim jihat sanaladi. Buning muhim tomoni shundaki, moliyaviy resursdan tashqari tomorqa xo'jaligini rivojlanishini cheklovchi muammolar mavjud, bularga quyidagilar kiradi: urug'chilik va ko'chatchilik bilan shug'ullanuvchi tizimni barpo etish; mineral o'g'it va kimyoviy elementlar bilan ta'minlovchi tizim faoliyatini muvofiqlashtirish; suv resurslari bilan ta'minlash va sohaga suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish; mahsulotni saqlash, qadoqlash, tara bilan ta'minlash, qayta ishlash tizimini tashkil etish; mahsulot savdosini amalga oshiruvchi logistika tarmog'ini rivojlantirish. Ushbu muammolarning hal etilishi, bevosita agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining faoliyat samaradorligiga bog'liq. SHunday ekan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllarining vujudga kelishi va ularning integratsiyalashuvi sohani rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi yer kodeksi. 1998 yil 1 iyul'.
2. O'zbekiston Respublikasining "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. 2021 yil 1 aprel'.

3. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. 2021 yil 1 aprel'.
4. O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi Qonuni, 2015 yil 29 dekabr'.
5. Quziyeva.N. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar moliya va kredit mexanizmini takomillashtirish yo'llari. –T.: «Iqtisod-moliya», 2006, 296 b. 27.
6. Altiyev A.S., yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibgasolish mexanizmlarinitakomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. 2018. –277 b.